

O‘ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Qosimova Dilorom Sobirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

ORCID: 0000-0002-4996-7509

E-mail: diloromkos@gmail.ru

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda eksport salohiyatini oshirishda transport logistikasi tizimining o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida temir yo‘l va avtomobil transporti orqali tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi, logistika infratuzilmasi holati hamda transport xarajatlari dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Transport turlarining tashqi savdo yuklarini tashishdagi ulushi, eksport, import va tranzit yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zgarishlar baholandi. Tahlil natijalari transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va transport xizmatlari samaradorligini oshirish eksport raqobatbardoshligini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali eksport hajmini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: milliy daromad, eksport, transport logistikasi, temir yo‘l, bojxona, bojxona boji, subsidiya, innovatsiya, tovar aylanmasi, investitsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, investor, yalpi ichki mahsulot, xususiy sektor, iqtisodiy resurslar, kapital.

Аннотация

В исследовании был проведён анализ роли транспортной логистики в повышении экспортного потенциала Узбекистана. На основе статистических данных были изучены объёмы внешнеторговых перевозок грузов железнодорожным и автомобильным транспортом, состояние логистической инфраструктуры и динамика транспортных затрат. Были оценены доли различных видов транспорта в перевозке внешнеторговых грузов, а также изменения по направлениям экспорта, импорта и транзита. Результаты анализа показали, что модернизация транспортной инфраструктуры, развитие логистических центров, цифровизация таможенных процедур и повышение эффективности транспортных услуг способствуют усилению экспортной конкурентоспособности. В результате исследования были обоснованы приоритетные направления развития транспортно-логистической системы для увеличения объёмов экспорта.

Ключевые слова: национальный доход, экспорт, транспортная логистика, железная дорога, таможня, таможенная пошлина, субсидия, инновация, товарооборот, инвестиции, макроэкономическая стабильность, инвестор, валовой внутренний продукт, частный сектор, экономические ресурсы, капитал.

Abstract

This study analysed the role of transport logistics in increasing the export potential of Uzbekistan. Statistical data were used to examine the volume of foreign trade cargo

transported by railway and road transport, the condition of logistics infrastructure, and the dynamics of transport costs. The shares of different transport modes in foreign trade cargo transportation and the changes in export, import, and transit flows were evaluated. The results demonstrated that modernization of transport infrastructure, development of logistics centers, digitalization of customs procedures, and improvement of transport service efficiency strengthened export competitiveness. The study substantiated priority directions for developing the national transport and logistics system aimed at increasing export volumes.

Keywords: national income, export, transport logistics, railway, customs, customs duty, subsidy, innovation, trade turnover, investment, macroeconomic stability, investor, gross domestic product, private sector, economic resources, capital.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lmish transport tizimini rivojlantirish, sohadagi xizmatlar sifatini yaxshilash ustuvor yo'nalishlar qatorida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda respublika YaIMda xizmatlar, xususan, transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganligi, ushbu sohani yanada rivojlantirish, tarmoqqa milliy va chet el investitsiyalarini ko'proq jalb etish, mahalliy tashuvchi firmalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosida mamlakatda yangi ishchi o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Bu yo'nalishda transport sohasini rivojlantirish maqsadida:

- milliy transport logistika kompaniyalari o'rtasida raqobat darajasini oshirish;
- avtomobil parklarini kengaytirish;
- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- eksportga mo'ljallangan milliy mahsulotlar narxlarini raqobatdosh qilish

maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlari sonini oshirish;

- avtomobil yo'llari holatini yaxshilash va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish belgilangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018-2021 yillar davomida temir yo'l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi

(104 098,9 ming tn) avtomobil transportida tashilgan tashqi savdo yuklari hajmidan (20 485,4 ming tn) sezilarli darajada (5,1 barobar) ko'p bo'lishiga qaramasdan, avtomobil transportining tashqi savdo yuklarini tashishdagi o'sib borish tendensiyasi temir yo'l transportiga qaraganda yuqori natijalarni ko'rsatmoqda.

Transport logistikasi samaradorligini baholashda indikativ yondashuvdan foydalangan holda transport xarajatlari miqdori, chegara va bojxona nazoratiga sarflanadigan vaqt, eksport, import hamda tranzit yuklarini rasmiylashtirishda talab etiladigan hujjatlari sonining miqdoriy qiymatlari belgilanadi. Bugungi kunda transport logistikasini faoliyatini baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan turlicha

yondashuvlar mavjud bo'lib, ular tomonidan sohaning holatiga baho berilishida ko'rsatkichlar, mezonalar va indikatorlardan foydalaniladi.

Said G'aniyev Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Olim eksport hajmini oshirish uchun temir yo'l, avtomobil yo'llari va logistika terminallarini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, infratuzilma sifati eksport raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biridir.

Murod Tillyakhodjayevni fikriga ko'ra tranzit salohiyatidan samarali foydalanish. O'zbekistonning geografik joylashuvi tranzit-logistika markaziga aylanish uchun katta imkoniyat ekanligini qayd etadi. Transport koridorlarini rivojlantirish eksportni kengaytirishga xizmat qiladi.

Abduqodir Vahobov tashqi savdo va logistika uyg'unligi. sport siyosatini transport-logistika tizimi bilan uzviy bog'liq holda olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Logistika xarajatlarini kamaytirish milliy mahsulotlar narxini raqobatbardosh qiladi.

Qo'chqorov Rustam Logistika markazlari va bojxona jarayonlarini soddalashtirish. Olim eksportni rag'batlantirishda zamonaviy logistika markazlari tashkil etish hamda bojxona va sertifikatlash tizimlarini raqamlashtirish muhimligini ko'rsatadi. Bu eksport jarayonini tezlashtiradi va tadbirkorlar xarajatlarini kamaytiradi.

O'zbekistondagi olimlarning fikricha, eksport salohiyatini oshirish uchun:

- transport infratuzilmasini yangilash,
- tranzit imkoniyatlarini kengaytirish,
- logistika xarajatlarini kamaytirish,
- bojxona jarayonlarini raqamlashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi logistika infratuzilmasining sifati va logistika operatsiyalari jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatlarning transport logistikasini yuk tashuvlari bo'yicha amaliy va nazariy tahlillar ishlab chiqilgan.

Mamlakatda transport kompaniyalari, logistika markazlari va brokerlik tashkilotlari o'rtasidagi sog'lom raqobatning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Logistik xizmatlar ko'rsatish qiymati. Logistik xizmatlar ko'rsatishda birlamchi transportda tashish xizmatlari va tashish bilan bog'liq boshqa xarajatlar hisoblanadi. Ikkilamchi omborxonalarda saqlash, o'rash va qadoqlash xizmatlariga sarflanadigan xarajatlar miqdoriga aytiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublika hududi bo'ylab tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat hududi orqali 2021-2024 yillar davomida temir yo'l va avtomobil transportida jami 124 584,3 ming tn. tashqi savdo yuklari tashilgan bo'lib, bunda temir yo'l transportining ulushi 104 098,9 ming tn.ni yoki 83,6 % ni, avtomobil transportida esa 20 485,4 ming tn.ni yoki 16,4 % ni tashkil etmoqda.(1-jadval)

1-jadval.

2021-2024 yillar davomida temir yo‘l va avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi (ming tonna)¹

T/R	Transport turi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	Jami	Jamiga nisbatan, foizda
1	Temir yo‘l	22 294,4	23 884,5	28 607,1	29 312,9	104 098,9	83,6
2	Avto	2 741,0	3 597,8	6 051,2	8 095,4	20 485,4	16,4
3	Jami	25 035,4	27 482,3	34 658,3	37 408,3	124 584,3	100,0

Quyida 2021-2024 yillar davomida mamlakat hududi orqali tashilgan tashqi savdo yuklari tashigan transport turlari va harakat yo‘nalishlari (*eksport, import, tranzit*) bo‘yicha tendensiyalarini ko‘rib chiqamiz. (2-jadval)

2-jadval.

Temir yo‘l transporti bo‘yicha tashilgan yuklar hajmi²

T/r	Yillar	Tashilgan yuk hajmi, ming tn.	2018-yilga nisbatan farqi	
			ming tn, +/-	foizda
1	2021	22 294,4	0,0	0,0
2	2022	23 884,5	1 590,1	7,1
3	2023	28 607,1	6 312,7	28,3
4	2024	29 312,9	7 018,5	31,5
5	Jami	104 098,9	-	-

3-jadval.

2021-2024 yillar davomida temir yo‘l transportida harakat yo‘nalishlari (eksport, import, tranzit) bo‘yicha tashilgan yuk hajmi, (ming tonna)³

T/r	Yillar	Eksport		Import		Tranzit		Jami
		yuk hajmi	ulushi, foizda	yuk hajmi	ulushi, foizda	yuk hajmi	ulushi, foizda	
1	2021	3 108,3	13,9	11 392,4	51,1	7 793,7	35,0	22294,4
2	2022	3 972,7	16,6	12 799,8	53,6	7 112,0	29,8	23884,5
3	2023	3 742,3	13,1	17 817,5	62,3	7 047,3	24,6	28607,1
4	2024	3 712,6	12,7	18 709,9	63,8	6 890,4	23,5	29312,9
5	Jami	14 535,9	14,0	60 719,6	58,3	28 843,4	27,7	104098,9

Temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari harakat yo‘nalishlari (*eksport, import, tranzit*) bo‘yicha hajmi quyidagicha: (3-jadval)

¹ DBQ elektron ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

² DBQ elektron ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari. www.stat.uz

Temir yo‘l transportida yuklarni tashishda qaraydigan bo‘lsak 2021 yilda 22 294,4 tonnani tashagan bo‘lsa 2023 yilda 23 884,5 tonnani tashigan bu ko‘rsatgich 1590,1 oldingi yilga qaraganda ortiqcha yuklarni tashiganini ko‘rishimiz mumkin foizda esa 7,1 % oshgan 2024 yilda esa 29 312,9 tonnani tashigan va bu foizda 2021 yildan boshlab 2024 yilgi davr ichida jami 104 089,8 tonna yuk tashigan bo‘lsa 4 yil mobaynida 31,5 % oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Temir yo‘l transportida tashilgan tashqi savdo yuklari harakat yo‘nalishlari (*eksport, import, tranzit*) bo‘yicha hajmi quyidagicha: (3-jadval)

Yuqoridagi jadvaldan 2021 yil davomida:

“eksport” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 3 712,6 ming tn.ni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan 604,3 ming tn.ga yoki 19,4 % ga oshganligini;

“import” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 18 709,9 ming tn.ni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan 7 317,5 ming tn.ga yoki 64,2 % ga oshganligini;

“tranzit” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 6 890,4 ming tn.ni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan 903,3 ming tn.ga yoki 11,6 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. (4-jadval)

4-jadval.

Avtomobil transporti bo‘yicha tashilgan yuklar hajmi¹

T/r	Yillar	Tashilgan yuk hajmi, ming tn.	2016-yilga nisbatan farqi	
			ming tn, +/-	foizda
1	2021	2 741,0	0,0	0,0
2	2022	3 597,8	856,8	31,3
3	2023	6 051,2	3 310,2	120,8
4	2024	8 095,4	5 354,4	195,3
5	Jami	20 485,4	-	-

Avtomobil transportida tashilgan tashqi savdo yuklari harakat yo‘nalishlari bo‘yicha hajmi quyidagicha:

“eksport” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 2 557,9 ming tn.ni tashkil qilib, 2024 yilga nisbatan 1 380,1 ming tn.ga yoki 2,2 barobarga oshganligini;

“import” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 4 748,9 ming tn.ni tashkil qilib, 2024 yilga nisbatan 3 667,0 ming tn.ga yoki 4,4 barobarga oshganligini;

“tranzit” yo‘nalishida tashilgan yuklar jami 788,6 ming tn.ni tashkil qilib, 2024 yilga nisbatan 307,3 ming tn.ga yoki 1,6 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. (5-jadval)

5-jadvaldan 2024-yil davomida: avtomobil transportida harakat yo‘nalishlari (eksport, import, tranzit) bo‘yicha tashilgan yuklar hajmi 2021 yildan boshlab eksport

¹ DBQ elektron ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yuklarni tashish 7 205,90 tonnani tashkil qilgan Import yuklar esa 10 742, 20 tonna tranzit yuklar esa 2 537,30 tonnani tashilganini ko‘rishimiz mumkin

5-jadval.

2021-2024 yillar davomida avtomobil transportida harakat yo‘nalishlari (eksport, import, tranzit) bo‘yicha tashilgan yuk hajmi, (ming tonna)¹

T/R	Yillar	Eksport		Import		Tranzit		Jami
		yuk hajmi	ulushi, foizda	yuk hajmi	ulushi, foizda	yuk hajmi	ulushi, foizda	
1	2021	1 177,80	43,0	1081,90	39,5	481,3	17,6	2741,00
2	2022	1 507,80	41,9	1493,20	41,5	596,8	16,6	3597,80
3	2023	1 962,40	32,4	3418,20	56,5	670,6	11,1	6051,20
4	2024	2 557,90	31,6	4748,90	58,7	788,6	9,7	8095,40
5	Jami	7 205,90	35,2	10742,20	52,4	2 537,30	12,4	20485,40

O‘z navbatida qayd etib o‘tish joizki, milliy tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, tashuvchilar uchun raqobat muhitini hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida milliy tashuvchilar uchun berilayotgan imtiyozlar shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda, 2021 - 2024 yillar davomida respublika hududi orqali tashqi savdo yuklarini tashigan avtotransport vositalari ro‘yxatga olingan davlatlar kesimida tahlil qilinganda, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan avtotransport vositalarining ulushi 42,0 % ga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ya‘ni, 2021-yilda 50 021 tani yoki 33,8 % ni, 2019-yilda 87 369 tani yoki 46,4 foizini, 2024-yilda 132 524 tani yoki 42,3% ni, 2021-yilda 182 501 tani yoki 42,7 % ni tashkil etgan.

Ushbu raqamlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy tashuvchilarimiz tashqi savdo yuklarini tashishda mamlakat ehtiyojlarini qondira olmayapti.

Bugungi logistika tizimida ortiqcha bo‘g‘inlarning mavjudligi sanoat mahsuloti tannarxiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, bunga asosan logistik zanjirining tarqoqligi - yetkazuvchidan qabul qiluvchiga qadar mahsulotlarni ortiqcha darajada ortish va tushirish bo‘g‘inlari mavjudligi sabab bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida ishlab chiqaruvchi tomonidan transport-logistika xizmatiga jahon andozalariga xilof ravishda ko‘proq xarajat qilishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab davlatlari kabi O‘zbekiston ham transport logistikasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi mamlakatga ushbu mintaqa orqali o‘tgan transport koridorlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shunga qaramay, mintaqa davlatlarining transport sohasidagi

¹ DBQ elektron ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

strategiyalarining bir-biridan farq qilishi, shuningdek, mamlakat milliy tashuvchilarining qo‘shni davlatlar hududidan xalqaro yuklar orqali harakatlanishida bir qancha muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, respublikaning dengizga chiqishida imkoniyati cheklangan dunyodagi ikki “doublelocked” davlatdan biri ekanligi hamda tovarlar qiymatida transport xarajatlari yuqoriligi ham mamlakat transport logistikasi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shunga ko‘ra, respublika hududi bo‘ylab tashilgan ichki va tashqi yuklar hajmi, asosan, temir yo‘l va avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bojxona organlari tomonidan tashqi savdo yuklarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruv amalga oshirilishini inobatga olib, respublika hududi bo‘ylab tashilgan tashqi savdo yuklari hajmi va ularni tashigan transport vositalari tahlili temir yo‘l va avtomobil transportlari kesimida amalga oshirildi

Shuningdek, mamlakat transport logistikasi faoliyatini rivojlantirishda rivojlangan davlatlarda amalda bo‘lgan zamonaviy transport xizmatlari mexanizmini o‘rganish hamda uni milliy transport tizimiga joriy qilish zarur. Ayniqsa, bu borada xalqaro tashuvlar jarayonida qo‘llanilayotgan 3PL logistika xizmatlaridan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. (6-jadval)

6-jadval.

Transport turlarida yuk tashish xarajatlarining qiyosiy tahlili¹

20 tonna yukni 1km.ga avtomobilda tashish narxi, AQSH dollar (tekstil mahsuloti misolida)				
O‘zbekiston	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston
2,45	1,70	1,55	1,35	0,92
1 ta standart vagon yukni 1 km.ga tashish narxi, AQSH dollar (100 km.gacha)				
O‘zbekiston	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston
7,29	4,24	2,65	6,83	2,65
Eksport va import uchun kerakli процедура hujjatlari soni				
10/11	10/12	9/10	11/12	6/5

Qiyosiy asosdagi narxlar tahliliga e’tibor qaratilsa, yurtimiz ishlab chiqaruvchilarining bir muncha xarajatlari yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bir standart vagon yukni (60 tonna to‘qimachilik mahsuloti) bir kilometrga yetkazib berish uchun temir yo‘l transporti xizmatiga 7,29 dollar to‘lashga to‘g‘ri keladi. Xuddi shu ko‘rsatkich qo‘shni Qozog‘istonda 4,24 dollarni, Qirg‘izistonda 3,65 dollarni, Tojikistonda 6,83 dollarni, Turkmanistonda 2,65 dollarni tashkil etmoqda. Bu esa, yurtimiz temir yo‘l transportining xalqaro tashuvlarda raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, transport vositalari orqali bajariladigan ishlarning umumiy qiymati qariyb 9,6 foizini yoqilg‘i (energiya) va moylash materiallariga sarflanadigan xarajatlar tashkil qiladi. O‘zbekiston transport sohasida yoqilg‘i resurslarining iste’moli, mana shu qiymatga nisbatan umumiy xizmat ko‘rsatish tannarxini shakllantiradi. Bunda transport tannarxi tarkibiga kiruvchi ish haqi umumiy xarajatlarning 8,3% ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich Yevropa Ittifoqida 50-52

¹ DBQ elektron ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

foizni, boshqa xarajatlar esa 40,2 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, amortizatsiya sarf-xarajatlari uchun O'zbekistonda 12,3 foizni, Yevropa Ittifoqida esa bu ko'rsatkich 6-7 foizni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida bizning fikrimizcha tovarlarni o'z vaqtida yetkazib berish. Tovarlarini belgilangan manzilga o'z vaqtida xavfsiz va yo'qotishlarsiz yetkazib berish tushuniladi. Mamlakatda faoliyat ko'rsatuvchi "Biznes logistikasini rivojlantirish assotsiatsiya" tomonidan 90 dan ortiq yirik ishlab chiqaruvchi va savdo kompaniyalari ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, 46 % respondent mamlakat transport-logistika xizmatlarini qoniqarsiz baholagan. Respondentlar tomonidan xalqaro tashish jarayonlari bilan bog'liq muammolar mavjudligi qayd etilgan. Jumladan, respondentlarning 19 foizi - transport vositalarining eskirganligini, 15 foizi - avtomobil yo'llari va yo'l bo'yi infratuzilmasining sifati pastligini, 13 foizi - bojxona postlaridagi kutishlarni, 10 foizi - transport vositalarini to'xtash va kutish obyektlari infratuzilmasining sifatsizligini, 8 foizi - yuk terminallarining kamligi va ularda zarur texnik texnologiyalarning yetishmasligini qayd etishgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz transport logistikasini rivojlantirishda quyidagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz:

Mamlakatning geografik joylashuvini inobatga olib, mintaqa davlatlarida yagona transport siyosatini amalga oshirish, mamlakatlar transport va bojxona ishi masalalarida bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari orqali ijobiy natijaga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevral PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-may PQ-4707-son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4806730>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevral PF-5647 "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4194107>
4. Международные транспортные организаци. Под общей редакцией V.V.Serebryakova. Moskva, «Transport», 2016r. Novoye izdaniye.
5. Ergashev Sh.T., Transport tashkilotlarida iktisodiy taxlilni tatkil etishning nazariy-uslubiy asoslari // «Logistika va iktisodiyot» elektron ilmiy jurnal. 2020. №3. - B.85-95
6. Improving mechanisms for attracting foreign investments, A Sobirov - Muhandislik va iqtisodiyot, 2026.
7. Muvaffaqiyatli startap faoliyatida rol O'ynovchi muhim omillar va O'zbekiston sharoitida startap ekotizmining Rivojlanishi. D Qosimova - Innovation Science and Technology, 2025.

8. Sobirovna K. D., Gafurovich A. N., Abdugafarovich S. A. Forming a management system of organizational culture of the enterprise. - 2021.
9. Sobirov A.A. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati va uning dinamik tahlili //Innovation Science and Technology. - 2025. - T. 1. - №. 11.
10. Kosimova, D. S. Muvaffaqiyatli startap faoliyatida rol o'ynovchi muhim omillar va O'zbekiston sharoitida startap ekotizimining rivojlanishi. Innovation Science and Technology, 87-91. 2025
11. Kosimova, D. S. Fusion of economic and financial factors affecting household deposits in banks: An econometric analysis. Fusion: Practice and Applications, 19(2), 82-91.2025
12. Kosimova, D. S.. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari biznes jarayonlarni transformatsiya qilish: Raqamli texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 91-94.2025
13. Kosimova, D. S. Significant development indicators of innovative activity of industrial sectors in the context of modernization of national economy. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 259-262. 2023
14. Kosimova, D. S. Analysis and solutions of the current situation and problems of organizing the activities of small and private business entities in Uzbekistan. World Economics & Finance Bulletin (WEFB), 132-137. 2024
15. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
16. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
17. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
18. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi)
19. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**